

**KASBLARNING TASNIFI VA KASBLARDA MEHNAT TURLARIGA  
TA’RIF (8-SINF O‘G‘IL BOLALARGA MO‘LJALLANGAN DARS  
MASHG‘ULOTLARI TIMSOLIDA)**

**Ilhomova Gulnoza Raimovna**

*Toshkent shahar Yunusobod tumani*

*258-maktab texnologiya fani o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA:**

Ushbu maqola 8-sinf texnologiya darsligiga asoslangan holda, o‘g‘il bolalar uchun mo‘ljallangan dars mashg‘ulotidan kelib chiqib, kasblar tasnifi va kasblarda mehnat turlariga qanday ta’rif berilishi haqida nazariy ma’lumotlar beradi. Hamda inson hayotida kasbning o‘rni va ahamiyati, tutgan darajasi borasida mulohaza yuritadi. Bundan tashqari maqoladan o‘quvchi kasb to‘g‘risidagi bobokalonlarimizning qarashlari, fikrlari va pand-nasihatlaridan ham xabar topadi. Mazkur maqoladan xalq ta’limida texnologiya fanidan dars berayotgan pedagog-o‘qituvchilar, soha bo‘yicha oliy ta’limda tahsil olayotgan bakalavr yo‘nalishidagi talaba va magistrlar foydalanishlari mumkin.

**KALIT SO‘Z VA IBORALAR:**

Kasb, mehnat, kasb-hunar, mutaxassislik, kasblar tasnifi, kasblar tipi, kasb turkumlari, kasb bo’limlari.

**АННОТАЦИЯ:**

Данная статья основана на учебнике технологии для 8-го класса и содержит теоретическую информацию о том, как классифицировать профессии и как определять виды работ в профессиях, на основе урока, предназначенного для мальчиков. Также он рассуждает о роли и значении профессии в жизни человека. Кроме того, читатель узнает о взглядах, мнениях и учениях наших предков о профессии. Данная статья может быть использована преподавателями технологии народного образования,

студентами и аспирантами, обучающимися по специальности высшие учебные заведения.

### **КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА И ТЕРМИНЫ:**

Род занятий, труд, профессия, специализация, классификация профессий, виды профессий, категории профессий, профессиональные отделы.

### **ANNOTATION:**

This article is based on an 8th grade technology textbook and provides theoretical information on how to classify occupations and how to define types of work in occupations, based on a lesson designed for boys. He also discusses the role and importance of the profession in human life. In addition, the reader will learn about the views, opinions and teachings of our ancestors about the profession. This article can be used by teachers of technology in public education, undergraduate and graduate students majoring in higher education in the field.

### **KEYWORDS AND TERMS:**

Occupation, labor, occupation, specialization, classification of occupations, type of occupations, categories of occupations, occupational departments.

Kasbshunoslik adabiyotida kasb tushunchasining tavsifi turfa talqinlar asosida keltiriladi. Ayni shulardan kelib chiqib, **kasb** — maxsus tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida ma'lum bir sohada kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy bilimlar majmuasini, amaliy ko'nikma va malakalarni puxta egallagan, unga jismoniy imkoniyat va aqliy qobiliyat hamda yuridik huquqlarni ta'minlovchi insoniy mehnat faoliyatining (mashg'ulotining) bir turidir deyish mumkin. Lug'aviy jihatiga nazar tashlasak, kasb yoxud kasb qilmoq so'z va so'z birikmalari arab tilidan kirib kelganiga guvoh bo'lamiz. Hamda kasaba fe'lining o'zagi sanalishini bilib olish mumkin.

Kasb shunchaki bir tushuncha yoki jarayonning bo'g'ini emas, balki u bir xil faoliyat turi bilan mashg'ul kishilarning birlashmasini tashkil qiladi. Ushbu faoliyat

tarkibida albatta ma'lum aloqa va axloq normalari belgilangan bo'ladi. E.A.Klimov o'zining ilmiy qarashlarida kasb tushunchasiga shunday ta'rif beradi: «Kasb — jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib, bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab qilinadi, bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi». V.G.Makushinning fikricha esa, «kasb — bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi». Oimlarning ilmiy qarashlari va firlariga tayanib, kasb tushunchasiga zamonga mos tarzda «kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakli bo'lib, texnika va texnologiyalarning rivojlanishi jarayonida mazmunan va shaklan o'zgarib boradi, ularni bajarish uchun inson albatta, ma'lum kasbiy kompetensiyalarga, maxsus qobiliyatlar va muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishi kerak» degan ta'rifni aytish mumkin.

Kasb tushunchasi haqida so'z borar ekan, **«kasb»** va **«mutaxassislik»** tushunchalari farqlanishini ta'kidlab o'tish o'rinni bo'ladi. Ularning farqi shundaki, kasb mutaxassislikka nisbatan kengroq tushunchadir, kasbiy salohiyatidan tashqari, uning muhim sifatlari — ijtimoiy-kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o'zini nazorat qilish, guruhli mezonlar va qobiliyatlar sanaladi. Ayni shularni umumlashtirib, kasb yaqin mutaxassisliklar guruhini tashkil qiladi deyish mumkin. Masalan, shifokorlik kasbi misolida aniqlik kiritamiz. Ya'ni shifokor bu — kasb, terapevt, pediatr okulist, urolog va hokazolar esa mutaxassisliklardir. Demak, **mutaxassislik** — kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarmoqlikda zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik — kasb ichidagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiyl natijalarga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Ushbu nazariy ma'lumotlarga tayanib, kasblarni tasniflash imkoniyati tug'iladi. Kasblarni tasniflashda quyidagicha yondashish mumkin:



Tasniflash borasida yuqoridagicha yondashuv asosida kasb tanlash yoshiga yetib kelayotgan 8-sinf o'quvchilarida kasb tanlash uchun tushuncha va yo'naliш berish mumkin. Ya'ni to'rtburchak shakladagi piramidaning eng yuqori bo'sh qoldirilgan qismiga o'zingiz tanlaydigan kasb nomini yozasiz yoki tasavvur qilasiz deb kasbga tanlashga qiziqish uyg'otish mumkin. Bu orqali o'quvchilarda kelajakdagi mehnat faoliyatlarini tasavvur qilish orqali sekinlik bilan, ya'ni quyidan yuqoriga chiqish mumkinligi haqida hamda kasb tipini aniqlashdan boshlab, uning turkumini muhokama qilishgacha bo'lgan pog'onalarini bosib o'tishlari kerakliklarini uqtish lozim. Zero, Kaykovusning «Qobusnomá»sida ta'kidlanganidek: «Ey, farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf yetkurmas. Bilursanki, xori mug'ilon (tikanli buta)ning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug'ulon yanglig' na o'ziga va na o'zgaga foyda berur» deyilganidek, o'quvchi-yoshlarda yoshligidanoq ahli inson uchun foydasi tegadigan yetuk va komil inson bo'lishlari uchun zaruriy poydevorni qo'yish joiz.

Eng avvalo, o'zi kasb haqidagi bilimlarni, uning tarxini, ta'rifini puxta egallagan pedagog o'quvchilarda kasblarning turkumlari, guruhlari va bo'limlarini tushuntirihs jarayonlarida hech qanday to'siqla duch kelmaydi. Aksincha, kasb to'g'risidagi dars mashg'ulotini tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalarga

asoslansa, ko‘rgazmali vositalardan unumli foydalansa, o‘quvchilarda ushbu dars mavzusiga ham kasblarga ham qiziqish yanada ortadi. O‘quvchilarning kasb turlari, guruhlari va bo‘limlari haqidagi tasavvuri va bilim doirasini kengaytirishda hayotiy misollar bilan bog‘lab tushuntirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, aynan kasblarning guruhlari haqidagi ma’lumotlarni berish bosqichidagi kasblar tasnifiga to‘xtalayotganda kasblarni to‘rt guruhga bo‘linishini ko‘rgazmalardan foydalanib (quyidagi rasmlar orqali), hayotga bog‘lab aniq ma’lumot berilishi ularda ongli ravishda bilim, ko‘nikmalaning oshishiga sabab bo‘ladi.



Xulosa sifatida aytish kerakki, kasb tanlash kelajak tanlovi ekanini o‘quvchilarga kasb haqidagi nazariy ma’lumotlar berish jarayonlarida to‘g‘ri tushuntirib o‘tish lozim. Chunki kelajakda ular biror kasb egalari bo‘lish barobarida Vatan va xalq uchun kerakli kadrlar, ma’lum bir sohaning rivojlanishida hissa qo‘suvchi malakali mutaxassislar ham bo‘ladilar. Shu boisdan o‘quvchilarda kasb haqidagi nazariy bilimlar doirasini kengaytirishda u haqidagi barcha nazariy ma’lumotlarni imkon darajasida hayotiy tushunchalar bilan bog‘lab tushuntirish

hamda dars mashg‘ulotlarida mavzu doirasidagi munosib innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ko‘rgazmlai vositalarni kerakli bosqichda qo‘llash juda ahamiyatlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROO‘YXATI:**

- O‘.O.Tohirov, I.Karimov, M.M.Maxsimova. Texnologiya. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi Uchun darslik. T.:»Ilm Ziyo», 2019.
- Козловский: Как правильно выбрать профессию: методики, тесты, рекомендации. – Донецк: ОООПКФ «БАО», 2006-10-06. – 365 с.
- Тутубалина Н.В. Твоя будущая профессия: сборник тестов по профессиональной ориентации. – Ростов н / Д: «Феникс», 2005. – 347 с.
- Тюшев Ю.В. «Выбор профессии: тренинг для подростков». – СПб.: Питер, 2006. – (Серия «Практ. психология»). – 345 с.
- Дидактика: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Под ред. В.А. Сластенина. – М.: Издательский центр «Академия», 2002. – 325 с.